



"QISSASI RABG'UZIY" ASARINING BADIY VA MA'NAVİY AHAMIYATI

Quvondiqova Sohiba Orif qizi

Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti (o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XIII asr turkiy adabiyotining muhim namunasi — "Qissasi Rabg'uziy" asarining yaratilish sabablari, adabiy uslubi, badiiy xususiyatlari hamda uning islom madaniyatidagi o'rni tahlil qilinadi. Asarning turkiy nasr rivojidagi ahamiyati va hozirgi zamон uchun dolzarbligi asoslab berilgan.*

Kalit So'zlar: *Qissasi Rabg'uziy, diniy nasr, turkiy adabiyot, didaktik asar, axloqiy g'oya.*

Turkiy adabiyot tarixida diniy-ma'rifiy nasrning ilk namunalaridan biri sifatida "Qissasi Rabg'uziy" alohida o'ringa ega. XIII asr oxirlarida Nosiruddin Rabg'uziy tomonidan yozilgan bu asar diniy hikoyatlar orqali xalqni tarbiyalash, axloqiy qadriyatlarni singdirish, islom tarixini ommaga yetkazish kabi maqsadlarni ko'zlagan. Asarda Qur'oni karim va hadislar asosida payg'ambarlar hayoti turkiy tilda, oddiy xalq tiliga yaqin shaklda yoritilgan bo'lib, u o'z davrida katta ma'naviy-ma'rifiy rol o'ynagan. Bu asar orqali biz diniy badiiy nasrning shakllanish jarayoniga ham guvoh bo'lamiz.

"Qissasi Rabg'uziy" 1309–1310-yillarda Xorazm viloyatining Rabg'uz shahrida yozilgan. Asar to'liq nomi "Qissas al-anbiyo" bo'lib, arabcha manbalardan olingan rivoyatlar asosida tuzilgan. Rabg'uziy bu hikoyatlarni turkiy tilga moslashtirib, xalq tushunadigan shaklda yetkazgan. Bu jihat bilan u diniy ma'rifatparvarlik an'analarini asos solgan adib sifatida tanilgan [Nosiruddin Rabg'uziy. Qissasi anbiyo. – Toshkent: G. G'ulom nomidagi NMIU, 2002.].

Asarda 28 nafar payg'ambarning hayoti, ularning Alloh bilan bo'lgan muloqotlari, qavmlariga olib kelgan da'vati, sabr-toqati, mo'jizalari hikoya qilinadi. Bu hikoyalar o'z navbatida xalqqa saboq berish, axloqiy kamolotga yetaklashni ko'zlaydi. Asarda arabcha, forscha terminlar mavjud bo'lsa-da, asosiy til — adabiy turkiydir. Shu bois bu asar ilk o'zbek adabiy nasrining taraqqiyoti uchun muhim manba hisoblanadi.

"Qissasi Rabg'uziy" diniy-ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan birinchi turkiy nasriy asar sifatida qadrlanadi. Asar islom tarixini xalqchil va badiiy yo'sinda bayon etgan. Nasrga she'riy parchalar qo'shilishi orqali asarning badiiy rang-barangligi oshirilgan. Muallif xalq og'zaki ijodi unsurlaridan keng foydalangan. Asarda tarbiyaviy g'oyalar — sabr, halollik, e'tiqod,adolat va Xudoga bo'lgan ishonch targ'ib qilingan. "Qissasi Rabg'uziy" nafaqat diniy-ma'rifiy risola, balki adabiy badiiy yodgorlik sifatida ham e'tiborga loyiq. U xalq og'zaki ijodi, Qur'oni karim, hadislar va tarixiy rivoyatlarni uyg'unlashtirgan. Bu asar xalq orasida diniy bilimlarni yoyishda muhim vosita bo'lgan. Rabg'uziyning asari bugungi kunda o'zbek tili, adabiyoti va madaniyati tarixini o'rganishda o'ta muhim manbadir.



Tadqiqotchilar, jumladan M. Suyunov, asarni "turkiy yozma nasrning boshlanishi" deb baholaydi. Bu fikrni uning xalq tili, badiiy uslub, diniy mazmun va adabiy shaklni uyg'unlashtira olganligidan ham anglash mumkin [Suyunov M. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 1999.]. Asarda hayotiylik, hikmat va iboratlar ustuvor, xalq ruhiyatiga mos obrazlar yaratilib, ular orqali diniy va axloqiy saboqlar beriladi. Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissasi anbiyo" asari o'zining diniy-ma'naviy, tarbiyaviy, til va uslub jihatlaridan turkiy adabiyot tarixida o'chmas iz qoldirgan. Asarning xalq orasida keng tarqalishi, zamonlar davomida qo'lyozmalarda saqlanib qolishi uning dolzarbligini isbotlaydi. U islomiy g'oyalarni badiiy ifoda orqali yetkazish an'anasini boshlab bergen va keyingi adabiyot uchun mustahkam zamin hozirlab bergen.

"Qissasi anbiyo" — Nosiruddin Rabg'uziy qalamiga mansub eng mashhur asarlardan biri bo'lib, unda payg'ambarlar hayoti xalqchil va badiiy tilda bayon qilingan. Ularning har biri orqali diniy-ma'naviy saboqlar ilgari suriladi. Bu asarning ilk hikoyasi — Odam alayhissalom haqida bo'lib, u nafaqat insoniyat tarixinining boshlanishi, balki gunoh, tavba, mag'rurlik va kechirim haqida chuqur falsafiy mazmunni o'z ichiga oladi. Bu hikoya ko'plab diniy manbalar va adabiy asarlarda o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, Rabg'uziy talqini o'ziga xos xalqona uslub va badiiylik bilan ajralib turadi. Odam alayhissalom qissasi diniy manbalarda, xususan Qur'oni karimda, hadislar va tafsirlarda keng yoritilgan. Jumladan, Baqara surasining 30–39-oyatlarida Odamning yaratilishi, Iblisning sajda qilmasligi va insoniyatning yerdagi hayotga yuborilishi bayon etiladi. Bu voqeani Rabg'uziy o'z asarida badiiy til, xalq og'zaki ifodasi va didaktik ruhda qayta hikoya qiladi.

Nosiruddin Rabg'uziyning ta'kidlashicha, Odam alayhissalom Allah tomonidan "loy va suvdan" yaratiladi, unga ruh puflanadi, farishtalarga sajda qilish amri beriladi. Iblis esa kibr tufayli bosh tortadi. Bu epizodda Iblis mag'rurlik ramzi, Odam esa kamtarlik, tavba va kechirim so'rash fazilatlarini ifodalaydi.

Adib bu voqealarni faqat rivoyat shaklida emas, balki axloqiy-tarbiyaviy ibrat sifatida beradi. Jumladan, Odam va Momo Havvoning jannatdan chiqarilishi gunoh va uning oqibatlari haqida chuqur saboq beradi. Bu holat nafaqat diniy, balki adabiy nuqtayi nazardan ham insoniyatning tanlov, ixtiyor, javobgarlik tushunchalari bilan bog'lanadi [Suyunov, M. (1995). Qissasi Rabg'uziy va uning adabiy qadriyati. — Toshkent: O'zRFA.].

Odam qissasi islom tafakkuri tarixida eng ko'p talqin qilingan mavzulardan biridir. Chunki bu hikoya insoniyatning yaralishi bilan birga, xato qilish va kechirilish singari universal tushunchalarni o'z ichiga oladi. Rabg'uziyning talqinida bu holat oddiy va tushunarli tilda bayon etiladi: Odam gunoh qiladi, lekin kechirim so'raydi va Allah uni afv etadi. Bu orqali Rabg'uziy xalqni Allah rahm-shafqatiga umidvor bo'lishga, gunohdan qo'rqish bilan birga, tavbadan umid uzmaslikka da'vat qiladi. Qiyosiy jihatdan olib qaraganda, Odam qissasi Alisher Navoiyning "Arba'in" nomli diniy-axloqiy risolasida ham uchraydi. Ammo Navoiy asosan nazm orqali falsafiy fikrlarni chuqur ifodalaydi, Rabg'uziy esa xalq tilida hikoya tarzida bayon qiladi. Xalq



orasida ko'proq aynan Rabg'uziyning shakli ommalashgan. Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissasi anbiyo" asaridagi Odam alayhissalom qissasi diniy e'tiqod, axloqiy saboq va insoniyat tabiatini anglash nuqtai nazaridan o'ta muhim hikoya hisoblanadi. Bu qissa xalq og'zaki ijodi, Qur'on rivoyatlari va badiiy tasvirlarning uyg'unligida yaratilgan. Odam obrazida kamtarlik, tavba, sabr kabi insoniy fazilatlar mujassam bo'lib, u hozirgi o'quvchi uchun ham dolzarb ibrat manbai bo'lib qoladi.

"Qissasi anbiyo" asarida Rabg'uziy Qur'oni karimda bayon qilingan payg'ambarlar hayotini xalqchil va badiiy tilda hikoya qilgan. Ulardan biri — Nuh alayhissalom qissasi bo'lib, u islam dini asoslarida eng qadimiy va eng muhim payg'ambarlardan biri sifatida tilga olinadi. Bu qissada iymon va kufr, sabr va qarshilik, najot va halokat g'oyalari asosiy g'oya sifatida ilgari suriladi. Rabg'uziy ushbu hikoyani xalq ongiga yaqin shaklda, sodda lekin ta'sirchan uslubda bayon qilgan.

Nuh alayhissalom qissasi Qur'oni karimning bir necha suralarida, jumladan, Hud, Shoaro, Nuh suralarida keng yoritilgan. Unda Nuhning o'z qavmini islamga da'vat qilgani, lekin ularning rad etishi, oxir-oqibat Alloh tomonidan ularga to'fon yuborilgani va faqat iymon keltirganlar qutulganligi hikoya qilinadi. Rabg'uziy esa bu voqeani tafsilotlarga boy tarzda badiylashtiradi. U Nuhning yillar davomida sabr bilan da'vat etganini, kemaning qurilishi, o'g'lini najotga da'vat qilishi, to'fon manzaralari, halokat va najotning farqi kabi epizodlarni jonli tasvirlaydi. Ayniqsa, Nuh alayhissalomning o'z o'g'lini chaqirishi dramatik kuchga ega: "Ey bolam, biz bilan kel, kofirlar ila birga bo'limgil!"

O'g'li dedi: "Men tog' ustiga chiqarman, meni suvdan saqlar".

Nuh dedi: "Bugun Allohning rahmidan hech kim najot topmas, faqat unga rahm aylanganlar..." Bu muloqot — iymon bilan qarindoshlik orasidagi ziddiyatni ko'rsatadi. Alloh bilan bog'lanish qarindoshlikdan ustun turadi. Rabg'uziyning talqinida bu faqat ogoohlantiruvchi rivoyat emas, balki katta saboq, hissiy zarba, axloqiy darsdir [Rashidov, Sh. (2010). Qissasi Rabg'uziy: Til va uslub masalalari. — Samarqand: Ma'naviyat nashriyoti.]. Nuh alayhissalom obrazining Rabg'uziy talqini boshqa manbalardagi ifodalar bilan taqqoslanganda, ko'proq xalqiy ruhda, ma'naviy tarbiya vositasi sifatida berilgani seziladi. Misol uchun, Alisher Navoiy "Munojot" asarida Nuhni sabr va chidam timsoli deb e'zozlaydi. Qur'on tafsirlarida bu voqeal ogoohlantiruvchi va dalolatli mo'jiza sifatida bayon etiladi. Rabg'uziy esa uni ibtidoiy nasr shaklida, hayotiy voqeal kabi tasvirlab, uni xalq og'zaki ijodiga yaqinlashtiradi. Shuningdek, bu hikoyaning suv timsoli orqali berilishi ham diqqatga sazovor: suv — halokat, lekin shu bilan birga tozalovchi, poklovchi kuch sifatida tasvirlanadi. Nuhning kemasi esa — najot, ishonch va najot timsoli. Bu ramzlar keyingi adabiyotlarda ham keng qo'llanilgan. "Qissasi Rabg'uziy"dagi Nuh alayhissalom qissasi diniy manbalar asosida yaratilgan bo'lsa-da, badiiy jihatdan kuchli, dramatik sahnalarga boy, xalq qalbiga yaqin shaklda yozilgan. Unda diniy saboqlardan tashqari, inson va iymon, sabr va sinov, rahm-shafqat vaadolat kabi ko'p qatlamlil g'oyalari mujassam. Bu esa uni nafaqat diniy, balki adabiy yodgorlik sifatida ham bebaho qiladi.



Nosiruddin Rabg'uziy yozgan "Qissasi anbiyo" asari xalq orasida eng mashhur va qadrlangan kitoblardan biridir. Unda payg'ambarlar hayoti xalqona tilda, ibratli voqealar asosida bayon qilinadi. Asardagi har bir qissa orqali odamlar hayot saboqlarini olishadi.

Ayniqsa, Muso va Fir'avn voqeasi hayotda to'g'ri yo'lidan yurish,adolatli bo'lish, kibrdan yiroq yurish, sabrli va ishonchli bo'lish kabi ibratlarni o'z ichiga oladi. Bu voqeal Rabg'uziyning asarida oddiy xalq uchun tushunarli, sodda, ammo chuqur ma'no bilan yozilgan. Har bir epizod – Musoning tug'ilishi, onasining uni sandiqda daryoga qo'yib yuborishi, Fir'avn saroyida ulg'ayishi, elchilik vazifasi, Fir'avnning qarshiligi va Allah tomonidan berilgan mo'jizalar ketma-ketligi o'quvchida kuchli taassurot qoldiradi.

Muso tug'ilgan davrda Fir'avn barcha o'g'il bolalarni o'ldirish buyrug'ini beradi. Chunki uning taxti uchun xavf tug'ilishi bashorat qilingan edi. Musoning onasi o'z bolasini asrash uchun uni sandiq ichida daryoga qo'yadi. Bu sahna oddiy ko'rinsa-da, unda ona yuragi, isbotlangan ishonch va Allahga suyanish bor. Aytish mumkinki, Rabg'uziy bu voqeani nihoyatda samimiy ohangda bayon qiladi. Muso Fir'avn saroyida ulg'ayadi.

Keyinchalik Allah tomonidan payg'ambar qilib tayinlanadi va u Fir'avnga borib, uni to'g'ri yo'lga da'vat qiladi. Biroq Fir'avn o'z kibridan voz kechmaydi, o'zini xudo deb biladi.

Bu yerda Fir'avn — zolim, haddidan oshgan hokim, Muso esa haqiqat tarafdoi, sabrli va jasur inson sifatida ko'rsatiladi. Asarda Musoga mo'jizalar beriladi: asosi ilonga aylanadi, qo'li oppoq bo'lib porlaydi. Bu mo'jizalar orqali u Fir'avn va uning qavmini ogohlantiradi. Biroq ular inkor qilishda davom etishadi. Allah Musoga Bani Isroilni olib chiqishni buyuradi. Fir'avn ularning ketidan quvadi.

Bu yerda Rabg'uziy eng kuchli manzaralardan birini tasvirlaydi: Allah Musoga daryoni ikki tomonga ochishni buyuradi, daryo ikki tomonlama yo'lga aylanadi va Muso o'z odamlari bilan o'tadi. Fir'avn ham u yo'lidan o'tmoqchi bo'ladi, ammo daryo qaytib yopiladi va u halok bo'ladi. Bu voqeada haq bilan botilning to'qnashuvi, kibr bilan tavozening qarama-qarshiligi, odamning tanlovi va oxir-oqibatdagi oqibatlar ochiq ko'rindi.

Eng muhimi – Rabg'uziy bu manzaralarni og'ir til bilan emas, xalq tushunadigan sodda so'zlar bilan hikoya qiladi. U daryo sahnasini mo'jiza sifatida emas, Allahningadolati, haqiqatga yordam berishi sifatida tasvirlaydi. Muso alayhissalom asarda o'zelini tark etmaydigan, ularni omon saqlash uchun har qanday sinovga tayyor, o'z dushmaniga ham mehr bilan murojaat qiladigan inson sifatida tasvirlanadi. Fir'avn esa o'zining qudratiga haddan oshiq ishongan, tavba qilishga ojiz va tan olishni bilmagan shaxs bo'lib gavdalaniadi. Aynan shu holati uni halok qilgan.

Muso va Fir'avn qissasi Rabg'uziyning asarida har qanday zamon o'quvchisi uchun tushunarli va ibratli tarzda yozilgan. Qissa faqat diniy voqeal emas, balki insoniy fazilatlar va yovuzlik o'rtasidagi kurash sifatida ham talqin qilinadi. Musoning sabri,



da'vatchiligi, og'ir vaziyatlarda ham Allohga suyanishi — har bir odam uchun saboqdir. Fir'avnning g'ururi, zulmi esa kim adashsa, oxir-oqibat yengiladi, degan fikrni uyg'otadi. Bu qissa asrlar davomida xalq orasida aytilib kelinayotgan ibratli hikoyalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, yoshlarga bu voqeani o'qitish, ular orqali sabr, iymon, rostgo'ylik kabi tushunchalarni berish muhimdir. Bugungi kunda ham odamlar o'rtasida haqiqat va yolg'on kurashi bor. Shu bois Muso va Fir'avn qissasi har davrda o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

Nosiruddin Rabg'uziy Muso va Fir'avn qissasini xalq qalbiga yaqin, sodda va ta'sirli uslubda yozgan. Asar o'quvchini zeriktirmaydi, aksincha, har bir voqealor qalbida o'ylantiradi, ibrat beradi. Qissaning asosiy saboqlari shuki: kimki haqiqatda sobit bo'lса, Alloh unga yo'l ochadi, kimki kibr va zulm yo'lida yursa, oxir-oqibat barbod bo'ladi. Bu — oddiy xalq ham tushunadigan, yurakdan o'rinn oladigan katta haqiqat.

Rabg'uziy qissasida Dovud alayhissalom — Alloh tomonidan payg'ambarlikka tanlangan, adolatli podshoh, dono hokim, go'zal ovozli va sabrli inson sifatida tasvirlanadi. Unga Zabur nomli muqaddas kitob nozil qilingan. Qissada uning yoshlikdagi sodiqligi, mo'jizalari, Solih hukm chiqarishdagi donoligi, halolligi va Allohga chuqur bog'langanligi alohida ta'kidlanadi.

Dovud alayhissalom qissasi, avvalo, uning Jolut (Joliyut) degan zolim sarkarda bilan bo'lgan jangida zafar topgani bilan boshlanadi. Bu sahnada u oddiy bir yosh yigit sifatida tasvirlanadi, lekin Allohga bo'lgan iymoni va jasorati bilan zolim kuch ustidan g'alaba qozonadi. Rabg'uziy bu voqeani ibratli sahna sifatida keltiradi: qudrat emas, iymon g'alaba keltiradi. Jolut halok bo'lgach, Dovud alayhissalom xalqqa rahbar etib tayinlanadi. U yurtni adolat bilan boshqaradi, odil hukmlar chiqaradi, xalqqa mehribonlik ko'rsatadi. Bu voqealarda Rabg'uziy uni adolatli va xalqparvar shoh sifatida tasvirlaydi.

Zaburning nozil bo'lishi. Alloh unga Zabur kitobini nozil qiladi. Dovud alayhissalom bu kitobni o'qiganda tog'lar va qushlar ham uning tilovatiga hamroh bo'lishadi. Bu yerda Rabg'uziy Dovud alayhissalomning go'zal ovozi, dilbar ohangi, qalb pokligini ta'riflaydi.

Temir yumshatilgan payg'ambar. Dovud alayhissalomga Alloh tomonidan temirni qo'lda shakllantirish mo'jizasi beriladi. U o'z qo'li bilan zirhlar yasaydi. Bu holat orqali Rabg'uziy halol mehnat, hunar va kasb egasi bo'lish g'oyasini ilgari suradi.

Asarda bir sahna bor — ikki kishi kelib, bir-biri ustidan shikoyat qiladi. Dovud ularni tinglab, bir tomonning foydasiga hukm qiladi. Lekin Alloh uni ogohlantiradi, har ikki tomon ham to'liq eshitilishi kerak edi. Bu voqeadan so'ng Dovud alayhissalom tavba qiladi.

Bu orqali Rabg'uziy inson xatoga yo'l qo'yishi mumkin, lekin uni tan olib, tavba qilish buyuk fazilatdir, degan fikrni beradi. Dovud obrazida sadoqat, iymon, adolat, hunarmandchilik va kechirimlilik kabi fazilatlar mujassam. Rabg'uziyning bayoni og'ir diniy terminlar bilan emas, xalq tiliga yaqin, tushunarli, muloyim uslubda yozilgan. Bu qissani faqat diniy rivoyat emas, balki insoniy, tarbiyaviy dars sifatida ham tushunsa



bo'ladi. Ayniqsa, temirni yumshatish mo'jizasi orqali mehnatga hurmat, hunarga mehr, sadoqat va poklikni targ'ib qilinadi.

Sulaymon alayhissalom — dono podshoh va Allohning mo'jizali bandasi. Rabg'uziy Sulaymonni avval Dovud payg'ambarning o'g'li sifatida tanishtiradi. Alloh Sulaymonga ilm, hikmat, dono hukm, va eng asosiysi — jin, qush, shamol ustidan hokimlik qilish mo'jizasini beradi. Sulaymon otasidan keyin hukumronlik qiladi, ammo bu qudrat uni kibrli qilmaydi, aksincha, rahmli va halol rahbar bo'lib qoladi. Sulaymon har ishda Allohga suyanadi, hech qachon o'z kuchi bilan maqtanmaydi. Rabg'uziy uni "hukmdor bo'lsa-da, payg'ambar pokligidan ayrilmagan" sifatida ko'rsatadi.

Qissada aytilishicha, Sulaymon qushlar va hayvonlarning tilini tushungan. Ayniqsa, hudur qushi orqali Bilqis malikasi haqidagi xabarni olishi diqqatga sazovor. Hudur kelib, Sabodagi qavm quyoshga sajda qilayotganini, ularning malikalari borligini xabar qiladi. Bu joyda Rabg'uziy qush tilini tushunishni shunchaki mo'jiza deb emas, rahm-shafqat va atrof-muhit bilan uyg'un yashash belgisi sifatida tasvirlaydi. Sulaymon qushga g'azab qilmaydi, uni sabr bilan tinglaydi. Bu esa rahbarning quyi qatlamni ham qadrlashi kerakligini bildiradi.

Sulaymon Bilqis malikani to'g'ri yo'lga chaqiradi. Bilqis avval hayron qoladi, unga elchi yuboradi. Sulaymon esa u bilan jang qilish emas, aql bilan yondashadi. Qissada yozilishicha, jinlardan biri Bilqisning taxtini qisqa fursatda olib kelishni taklif qiladi. Ammo boshqa biri: "Men uni siz o'rningizdan turishdan oldin keltiraman", deydi. Sulaymon taxtni tanimagan malikaga: "Taxting shunga o'xshaydimi?" deb savol beradi. Bu yerda sinov bor — Bilqis haqiqatni tan oladimi? Malika haqiqatni tan oladi va Allohga iymon keltiradi. Rabg'uziy bu voqeani juda xalqona ruhda bayon qiladi. Bilqis ayol bo'lsa-da, aql-idroki bilan haq yo'lni tanlaydi, degan fikr ilgari suriladi. Bu orqali muallif ayol obraziga adolatli yondashgan.

Sulaymonningadolati va mehnatga munosabati. Sulaymonga Alloh temirni eritish, hunar bilan mashg'ul bo'lish, hunarmandchilikni targ'ib qilishni buyurgan. U hunarni ulug'lab, o'zi ham mehnat qiladi. Bu esa o'quvchiga rahbar bo'lsa ham mehnat qilishdan or qilmaslik kerakligini o'rgatadi. Rabg'uziy Sulaymonni faqat mo'jiza egasi sifatida emas, mehnatkash, halol va pokiza inson deb tasvirlaydi. Asarning eng oxirida Sulaymon alayhissalom tayoqqa tayangan holda vafot etadi, lekin jinlar uning o'lgani haqida bilmaydi va ishlashda davom etadi. Faqat tayoqni chumoli yemirib tashlagach, Sulaymon yiqiladi. Jinlar esa: "Agar biz g'aybni bilgan bo'lganimizda, bu xoru zor ishda uzoq qolmas edik", deydilar. Bu sahna orqali Rabg'uziy insonga berilgan kuch vaqtinchalik, haqiqiy kuch va ilm — faqat Allohniki ekanini tushuntiradi. Sulaymon hatto o'limi bilan ham dars beradi.

Yusuf alayhissalom qissasi — Qur'onda ham, Rabg'uziyning "Qissasi anbiyo" asarida ham eng go'zal, eng ta'sirli voqealardan biridir. Bu qissada nafaqat payg'ambarlik, balki go'zallik, hasad, fitna, sabr, xayrixohlik, kechirimlilik kabi ma'naviy tushunchalar ham chuqur ifoda etilgan. Rabg'uziy bu qissani odatiy diniy til bilan emas, balki xalq tushunadigan, yurakka yaqin tilda bayon qiladi.



Yusuf alayhissalom yosligida tush ko'radi: "O'n bir yulduz, quyosh va oy menga sajda qildi", deydi u otasi Ya'qubga. Bu tushning kelajakda katta ma'no anglatishini otasi tushunadi va uni hech kimga aytmaslikni buyuradi. Bu sahma orqali Rabg'uziy farzand tarbiyasi, ota mehr-muhabbati va bashoratlari tushlarning asl ma'nosi haqida fikr yuritadi. Ya'qub payg'ambar Yusufni boshqalardan ko'ra ko'proq yaxshi ko'radi. Bu holat birodarlarning hasadini uyg'otadi. Ular Yusufni olib ketib, quduqqa tashlab yuborishadi. Rabg'uziyning bayonida bu hodisa hasad va zulmning eng yomon shakli sifatida ohib beriladi. Yusuf bo'lsa, hatto quduqda ham Allohdan umidini uzmaydi. Bu uning sabr va tavakkal egasi ekanini ko'rsatadi.

Misrga sotilishi va zindon voqeasi. Karvonchilar Yusufni topib, uni Misrga olib ketishadi. U yerda uni Misr vaziri sotib oladi. Vazirning ayoli Zulayho Yusufga oshiq bo'ladi va unga gunoh taklif qiladi. Yusuf esa g'oyat go'zal bo'lishiga qaramay, barcha vasvasalardan saqlanadi, sabr qiladi va gunohdan tiyiladi. Bu holat Rabg'uziyning ifodasida nihoyatda yuksak axloqiy ibrat sifatida bayon etiladi.

Zulayho uni tuhmat qilib zindonga tashlatadi. Zindonda ham Yusuf ruhiy quvvatini yo'qotmaydi, aksincha, mahbuslarga mehr ko'rsatadi, ularning tushlarini tabir qiladi. Bu orqali Rabg'uziy hayotning har qanday holatida sabrli va pokiza bo'lish kerakligini o'rgatadi.

Tush ta'biri va sultonga maslahatchi bo'lishi. Sulton g'ayrioddiy tush ko'radi va hech kim uni tabir qila olmaydi. Yusuf bu tushing etti yil hosil va yetti yil qurg'oqchilik bo'lishini aytadi. Bu donolik va tafakkur orqali Yusuf saroyga qaytariladi, sultonga eng yaqin maslahatchiga aylanadi.

Rabg'uziyning bu qismdagagi bayoni shuni ko'rsatadiki, ilm, sabr va iymon odamni eng quyi holatdan eng oliy maqomga olib chiqadi.

Birodarlar bilan uchrashuv va kechirim. Ocharchilik yillarida Yusufning birodarlari undan don so'rab kelishadi. Yusuf ularni taniydi, ammo ular uni tanimaydilar. Yusuf ulardan intiqom olmaydi, aksincha, ularni kechiradi, otasini olib kelishni so'raydi va oxir-oqibat butun oilasini birlashtiradi. Bu sahma orqali Rabg'uziy kechirim, bardavom mehr, Allohgaga suyanish, ota-onani qadrlash kabi fazilatlarni ta'sirli tasvirlaydi.

Yusuf qissasi murakkab bo'lsa-da, Rabg'uziy uni xalq tilida soddalashtirib yozgan. Yusufning go'zalligi — uning ko'rinishidagina emas, balki qalbidagi poklik, sabr, iymon, kechirimplilikdadir. Asardagi har bir epizod – tush, quduq, zindon, saroy, ota bilan uchrashuv — alohida ramziy ma'noga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qayumov A. O'zbek nasrining shakllanishi. – Toshkent: O'zbekiston, 1987.
2. Rashidov Sh. Turkiy yozma yodgorliklar. – Samarqand: Ma'naviyat, 2011.
3. Karimov B. Adabiy manbalar tahlili. – Buxoro: Ilm ziyo, 2015.